

ADABIY NUTQ - SHAXS HAYOTIDAGI YAXLIT FAOLIYAT SIFATIDA

Jo'rayeva Mohira Yunus qizi

Qarshi Davlat Universiteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi va amaliyoti fani o'qituvchisi

joraeva.mohira@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada nutq madaniyati tushunchasi, yurtimizda nutq madaniyatiga oid dastlabki ishlar tahlil qilinadi. Nutq madaniyati hamda adabiy nutq me'yorlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilib, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: *Nutq, adabiy me'yor, nutq madaniyati, faoliyat.*

Аннотация. В статье анализируются понятие речевой культуры, первые работы по речевой культуре в нашей стране. Изучена связь культуры речи и норм литературной речи, даны предложения по развитию навыков говорения.

Ключевые слова: *Речь, литературный стандарт, культура речи, деятельность.*

Annotatsiya. The article analyzes the concept of speech culture, the first works on speech culture in our country. The relationship between the culture of speech and the standards of literary speech was studied, and suggestions were made for the development of speaking skills.

Key words: *Speech, literary standard, speech culture, activity.*

Insonlarda nutq madaniyatini, ya'ni to'g'ri so'zlash va yozishni talab qilish uchun mana shunday yozish va so'zlashga vosita bo'la oluvchi qurolni belgilash lozim. Bunday qurol-adabiy tildir. O'zbek tilshunosligida adabiy til va nutq madaniyatiga oid dastlabki ishlar o'tgan asrning 80-yillarida maqolalar, risolalar yozish bilan boshlandi. Bu soha haqida ilk ma'lumotlarni tahliol qilgan olimlar – S.I.Ibrohimov, Q.X.Xonazarov, P.Qo'ng'urov, E.Begmatov, A.Axmedov, M.Sodiqova, G.Samadov, O'.Usmonova, X.Jalilov, S.Inomxo'jayev, A.Xo'jayeva.

E.Begmatovning fikricha, nutq madaniyatining hozirgi davr tilshunosligida o'ziga xos muhim ilmiy sohaligi shubxasizdir va olim adabiy til madaniyatini uch hodisani o'z ichida qamraydi deb hisoblaydi:

1. Adabiy tilni ongli ishlash;
2. Adabiy tilning madaniylashgan holati;
3. Madaniy til normalaridagi ba'zi holatlarni qayta ishlash va takomillashtirish[1].

Nutq madaniyati tushunchasining aniq, mavjud hodisa ekanligi, uning adabiy til va adabiy til madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, ikkinchi tomondan kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidadir. Adabiy til normalari eng avvalo oiladagi tarbiyada, qolaversa, o'rta va oliy ta'limda o'zlashtiriladi. Adabiy tilni o'rganishda mustaqil shug'ullanish ayniqsa, badiiy adabiyotlar, ro'znomalar o'qish, radio, televideniye tinglash muhim rol o'ynaydi. Demak, adabiy til, adabiy til madaniyati, o'qish-o'rganish, shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir. Bu jarayonda inson eng avvalo ota-onadan bolalik chog'idan boshlab so'zlarni o'rganib, nutq hosil qilish uchun ko'nikma shakllantiradi.

Shaxs nutqiy faoliyati inson hayotining dastlabki yillaridanoq boshlanadi. Mutaxassis olimlar bola so'z va tovushlarni ona qornida ekanligidayoq ajrata olishini ta'kidlaydilar. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, madaniyat, san'at va adabiyotning jadal o'sishi bolalarning aqliy-ruhiy kamolotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya sohasida yangi usul va metodlardan foydalanishni, xususan, o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari va nutqini o'stiruvshi ish turlarini keng qo'llagan holda nutq odobi va madaniyatini o'rgatishni taqozo etadi. Nutq odobi "nutqiy muloqot qoidalari, tamoyillari va shakllarining yig'indisi, ijtimoiy pedagogic faoliyat sohalari bilan bog'liq madaniy me'yorlar majmuyi, bu jarayondagi qoidalar ijobiy natijaga yo'nalganlik, nizo va bahsli holatlarni yechishga intilish, kelishish, bitimga erishishga harakat qilish, xolislik, murosaga borish hisoblanadi"[5; 26-b]. Nutq madaniyati esa "nutqning adabiy til me'yorlariga asoslangan, mantiq ilmi talablariga bo'ysungan holda namoyon bo'lishi." Bolani kichik maktab yoshidan boshlab nutq odobi va nutq

madaniyatiga o'rgatib borish hosilasida ularning intellektual saviyasi, ma'naviy boyligi ortadi va murojaat qilishda, fikr yuritish va fikrni ifoda etishda, ziddiyatli vaziyatlarda muloqotning umummadaniy me'yorlaridan foydalanadilar. O'z shaxsiy fikr-mulohazasini nutq odobi doirasida yuzaga chiqarishni kichik maktab yoshida o'rgatish orqali bolada xolislik, suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'zaro muloqot jarayonida o'zbek adabiy tilida hurmat bilan so'zlash; qisqa, aniq, teran mazmunli, keng qamrovli fikr bildirish, suhbatdoshlar bilan vazminlik va holislik bilan munozara yuritish, his tuyg'u va ichki kechinmalarini odob bilan ifoda etish kabi xususiyatlar singdiriladi. D.R.Babayevaning fikricha, bolalarning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta'minlovchi mazmunli keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutqni o'z ichiga oladi.[2]

E.Begmatov nutq madaniyatiga shunday ta'rif beradi:

1. Tildagi mavjud til hodisasining nomi;
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi, aniq nutqiy jarayonning nomi;
3. Madaniy nutq va u haqidagi kishilarning ongida mavjud bo'lgan aniq normativ tasavvurlarning nomi.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadi (u bog'lanishli nutq deb ataladi)

2) og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og'zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so'z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog'ida ishtirok etuvshilarning soniga ko'ra dialogik va monologik kabi turlarga bo'linadi;

6) dialog og'zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo'lib, ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida kechadi;

7) og'zaki nutq, tabiatiga ko'ra, ko'proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmuni ifodalash ushuni til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko'ra bir qadar an'anaviylikka ega. [4; 321-b.]; Pedagogik japyonlarda ko'p holatlarda "nutqni rivojlantirish" deyilganda shaxs nutqini bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan metod va vositalar ham e'tirof qilinadi. Tadqiqot ishida "nutq o'stirish" tushunchasini nutqni rivojlantirishning yuqorida ta'kidlangan jihatlarini hisobga olgan holda tushunmoq lozim. Biroq, ayni o'rinda aytib o'tish lozim, shaxs, o'quvchilar nutqini o'stirish (rivojlantirish) bevosita jarayon sanaladi, rivojlantiruvchi metod va vositalar jarayonning o'zi emac, balki uning camarali, muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omillardan biri, xolos. [3;18]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, Y.Tojiyev nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O'qituvchi 1992.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi. T:2018
3. Abdullaeva F. N. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabor maqolalarni o'qitishning metodik imkoniyatlari Pedagogika fan. Bo'y. Fal. Dok. (RhD) ilmiy darajasini olish ushuni ...diss. - Bux. 2022.
4. Qosimova K., Matshonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi / Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari ushuni darslik. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
5. R.G'. Safarova, R.X. Jo'rayev. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.-424 bet.